



UDK:811.111.1

*Elbek JUMANOV,*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, PhD*

*E-mail: elnazar2186@rambler.ru*

*O‘zMU professori, f.f.d. N.Rahmonov taqrizi asosida*

### ERTAK SYUJETI HALQALARINING FORMULALARDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek xalq ertaklarining medial qismida qo‘llaniladigan turg‘un birikmalar atroflicha tadqiq etilgan. Tadqiqot o‘zbek og‘zaki ijodiyoti namunasi sifatida taqdim etilgan 600 ga yaqin ertakni qamrab olgan, ko‘plab ertaklardagi o‘rtaliq formulalarni aniqlagan bilan ahamiyatlidir. Maqolada shu paytgacha o‘zbek ertakshunosligida uchramaydigan qiziqarli ma‘lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** ertak, klishe, formula, sxema, element, initial, medial, final.

### ОТРАЖЕНИЕ КОЛЬЦОВ СКАЗОЧНОГО СЮЖЕТА В ФОРМУЛАХ

Аннотация

В статье подробно рассматриваются устойчивые соединения, используемые в медиальной части узбекских народных сказок. Исследование важно тем, что оно охватывает около 600 сказок, представленных как образцы узбекского устного искусства, и определяет промежуточные формулы во многих сказках. В статье представлена интересная информация, которой никогда не было в узбекских сказках.

**Ключевые слова:** сказка, клише, формула, схема, элемент, инициальный, медиальный, финальный.

### REFLECTION OF THE RINGS OF A FAIRY PLOT IN FORMULAS

Annotation

The article examines in detail the stable compounds used in the medial part of Uzbek folk tales. The study is significant in that it covers about 600 fairy tales presented as examples of Uzbek oral art, and identifies intermediate formulas in many fairy tales. The article provides interesting information that has never been found in Uzbek fairy tales.

**Key words:** fairy tale, cliché, formula, scheme, element, initial, medial, final.

**Kirish.** Ertak so‘zlovchisiga ijro jarayonida mislsiz imkoniyatlar yaratadigan, tinglovchilarga esa asar zamiridagi asl haqiqatni anglashga ko‘maklashadigan medially formulalar o‘zbek folklorida juda muhim o‘rin tutadi. Ertak qahramonlarining befarzandligini bildiruvchi “b” elementi ham universal o‘rtaliq formulalar sirasidan. Mazkur formula 51 ta ertakda bir martadan qo‘llangan. Turkumlar miqyosida qaraydigan bo‘lsak, 40 ta sehrli, 10 ta maishiy, bitta hayvonlar haqidagi ertakda ushbu element ishtirokini ko‘rish mumkin.

Masalan, hayvonlar hayotidan hikoya qiluvchi “Bir kosa zahar” nomli ertakda ham “Ularning o‘g‘li ham, qizi ham yo‘q ekan” degan jumla keltiriladi. “Bo‘z bola” nomli ertakda bu formula qofiyaga solingan tarzda aytilgan: Atoqli boy bor ekan. // Sevib olgan yoridan // Sevinchog‘i yo‘q ekan. // Davlat desang hisobsiz, // Shuncha davlatda, esiz, // Bir o‘g‘ilga zor ekan. “Zar kokilli yigit” ertagida “Farzandi bo‘lmagani uchun dog‘i hasratda ekan”, “To‘qiliboy” ertagida esa “Ammo timoqqa zor ekan. Xotinlari tug‘mas ekan” so‘zlarini uchratamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Befarzandlik epik qismning tuguni, uning asosiy va ahamiyatli mag‘zini tashkil etadi. Chunki ideallashtirish ana shu mag‘izdan boshlanadi. Ibtidoiy xalq tushunchasida homiladorlik ayol tanasiga totem (muqaddas sanalgan narsa)ning kirishidan deb hisoblanadi [5]. Demak, tasodifiy homiladorlik va uning paydo bo‘lishi ikki xil ibtidoiy tushuncha – biri magik afsun, ikkinchisi esa diniy e‘tiqod bilan izohlangan. Agar ayol uzoq muddat bola tug‘masa, “odatda buni biror ruhning ta‘siridan”, ba‘zan esa “mulla yoki sehrgarning magik afsunidan” deb bilganlar. Bunday ibtidoiy dunyoqarash e‘tiqodlar, hayotiy urf-odatlar, diniy tushunchalar ertak motivining tashkil topishiga sababchi bo‘lgan. Bu narsa ertaklarda konkret ham individual keng va yoyiq tarzda turli ifoda hamda tasviriy vositalar yordamida tasvirlanadi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Butun dunyo folklorida bo‘lgani kabi o‘zbek xalq ertaklarida ham sehr-jodu amallari salmoqchi o‘rin egallaydi. Biz tadqiqotlarimiz davomida tilsimli buyumlarning o‘ziga xos xususiyatini tushuntiruvchi formulalarga 57 ta ertakda 79-marta duch keldik. Sehrli buyumlar ishga

tushirilgan holatlarning umumiy miqdori esa 99 ta tashkil etmoqda. Bunday holatlar 39 ta ertakda o‘z aksini topgan.

Aniq misollarga o‘tadigan bo‘lsak, “Mehrigiyo” (“Labbbay tosh, men senga yo‘ldosh”, – deb tilagingni tilasang, ko‘zingni yumib-ochgunningcha xohlagan narsang tayyor bo‘ladi), “Gul uzuk” (Bir burab, istagingni uch marta qaytarsang – aytganing bir zumda tayyor bo‘ladi), “Sehrli shamchiroq” (“Qachon boshingga bir qiyinchilik tushsa, bir toshga surkasang, senga asqotadi”), “Sehrli qo‘ng‘iroq” (“Bundan istagan narsangni olishing mumkin”), “Mulla panqush” (“Piramondagi chinni ichida mulla panqush bor. Buni o‘sha qilgan”), “Tag‘rimtosh” (“Agar u toshni mard yigit yonida olib yursa, nimaiki maqsadi bo‘lsa bajo bo‘ladi”), “Ohanrabo” (“Tilim tagida ohanrabo bor. U har qanday orzumga yetishtiradi”) ertaklarida sohibining istalgan buyrug‘ini bajara oladigan buyumlar haqida so‘z boradi.

**Tahlil va natijalar.** Qator ertaklar, xususan, “Uchar gilam” (“Ey gilamcha, cholning hurmati, meni falon joyga yetkazgin!” – desa, ko‘zini yumib-ochguncha o‘zini o‘sha yerda ko‘rar ekan”), “Mohistara” (Mana bu telpakni kim kiyib olsa, kishining ko‘ziga ko‘rinmaydi. Gilamga tushib o‘tirib, “ko‘tar!” desa, osmonga ko‘tarilib ketadi va butun dunyoni sayohat qildiradi. Mana bu kamonga o‘q solib otsang, ko‘zlagan yeringga tegadi va tekkan narsangni birga qaytarib senga olib keladi), “Chip yopish!” (“Mana shu ximchani “chip yopish!” deb yerga ursang, sening dushmanlaring yerga yopishib qoladi”), “Tosh-tuxum” (“Biri – toj, Har kim halol bo‘lsa, ikki rakaat namoz o‘qib, tojni kiysa, yo‘q bo‘lib qoladi. Ammo o‘zi odamlarni ko‘rib turadi-yu, boshqa odamlar uni ko‘rmaydi. Ikkinchisi – hassa. Hassani ushlab har qancha yo‘l yursang ham xuddi o‘ning ustida ketayotgandek hech charchamaysan. Uchinchisi – ul erurki, zilcha degan bir gilamcha bor. Agar halol bo‘lsang, ikki rakaat namoz o‘qib, xohlagan yerimga yetkaz, desang ko‘z ochib yumguncha olib boradir”), “Xo‘javoqqinazar” (“Qiz bir tola sochidan yulib, “shu sochni to‘nkaning yorig‘iga tiqib qo‘yasan, keyin bolta urganingda, to‘nka ming bo‘lak bo‘lib ketadi”, “Gul uzuk” “Mana bu mening qo‘limdagi tayoq – sur tayoq. Agar “ur, tayoq” desa, odamni urib o‘ldiradi, agar “sur, tayoq” desa, o‘lgan odamni

turg'izadi", "Murqumomo" ("Kimki hassani ushlasa, bir qadami ming qadam bo'ladi, qalpog'ini kiysa, kishi ko'ziga ko'rilmaydi. Gilamga o'tirib, xatlarini o'qib xohlagan joyining nomini aytsa, o'sha yerga olib boradi. Hassaning yana bir xususiyati shuki, ko'r ko'zga surtsa, ko'zi ochiladi"), "Kimyogar boyning o'g'li" ("Har qo'lingni solganingda bittadan o'n so'mlik tilla chiqa beradi"; "Mana bu kulohni kim kiysa, uni hech kim ko'rmaydi"). "Chol bilan kampir" ("Olib, "Gazla, gazim!" desang, shoyi, atlas, gazlab tashlaydi"), "Malikai Gulizor" ("Mana bu ko'zguda esa ikki oylik uzoqdagi sevgilingni ko'rishing mumkin"; "Bu gilamda esa, ikki oylik yo'lni ikki soatda bosib borasiz"; "Yuz tangalik olmani o'likka iskatsang jon kiradi, yedirsang avvalgi asliga kelib qoladi"), "Baxt daraxti" ("Uning bargini ming dardga shifo deydi"), "Said botir" ("O'g'lim, shu kallapo'shni kiysang, seni hech kim ko'rmaydi. Mana bu etikni kiysang, bir oylik yo'lni bir soatda bosib o'tasan"), "Ajdar qush" ("Toshning chetida "Men tilsimli toshdirman, yuz ming polvon ko'tarsa ham ochilmayman. Mening kalitim ajdar qushning shohi", – deb yozilgan xati bor emish") kabi ertaklarda esa faqat muayyan vazifani bajaradigan predmetlar tasvirini ko'rishimiz mumkin.

"Podachi yigit" "Agar menga bir gap bo'lsa, shu yulduz xiralashib so'na boshlaydi"; "Agar menga bir gap bo'lsa, mana shu kosadagi suv loyqalanib qoladi"; "Agar menga bir gap bo'lsa shu tumorning isi kelmay qoladi"; "Qilich botir" ("Agar biridan qon kelsa, beg'am bo'l, biridan zardob kelsa, tezdin qanot bog'lab, orqamdan uchib yet"), "Vafo" ("Agar mening boshimga biror ish og'ir tushsa yoki men biror yomon yo'lga kirib ketsam, shu gul o'sha ondayoq so'ladi"), "Xudoyor va Jo'ra" ("Agar boshimga qora kun tushsa, kosadagi sut qatiqqa aylanadi, agar o'lim holiga kelsam bu qamchidan qon tomadi"), "Bektemir botir" ("Agar shu qilichdan qon tomsa, Bektemir o'ldi denglar va azamni tutinglar"), "G'ulom polvon" ("Agar shu qilichdan qon tomsa, meni o'ldi deb, xayri ehsonimni qilinglar") nomli ertaklarda sehrli ashyoning holati uzoqdagi odamning ahvolidan xabar beradi.

"Zar kokilli yigit", "Erkajon", "Vospiroxun", "Qiron botir", "Kenja botir", "Guliqahqah", "Oypari", "Kulol aka", "Shahzoda Salmon", "Hazratqul", "Erkenja", "Qirg' kuyov", "Ikki do'st", "Ota vasiyati", "Qilichqora", "Besh qiz", "Bulbuligo'yo", "Vazirvachcha", "Uch og'ayni" va "Oqqush" nomli ertaklarda qahramonga taqdim etilgan biror jism (pat, tuk, soch, somon kabilar) ko'makchini chaqirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ertaklarning barchasida "Qachon boshimga mushkul ish tushsa, shuni kuydirsang yetib kelaman" mazmunidagi jumla deyarli o'zgarishsiz qo'llaniladi.

O'zbek xalq ertaklarida magik xususiyatga ega bo'lgan sehrli ashyolardan biri sifatida qo'llanilgan qush pati detali an'anaviy poetik timsollaridan biri bo'lib, epik qahramonga ko'maklashuvchi homiy kuchlarga aloqador mifologik tasavvurlarni o'zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. Epik qushlarning qahramonga o'z patini motivi turkiy xalqlar folklorining mushtarak syujet elementlaridan biri hisoblanadi [3] Xususan, S.Qaqbasovning ma'lumotlariga qaraganda, "qozoq xalq ertaklarida Samruk degan ulkan qush poloponlarini qutqargan qahramonni yer osti olamidin yorug' dunyoga olib chiqadi-da, bir dona patini berib ketadi. Qahramon o'z boshiga mushkul ish tushganda ana shu patni kuydirib, Samrukni yordamga chaqiradi. Bu tipdagi ertaklarning barchasida qush patining magik xususiyati bevosita olov yordamida, ya'ni kuydirilganligiga namoyon bo'ladi. Bu esa olov ham qadimda magik xususiyatga deb qaralganligini ko'rsatadi" [5].

Bu epik motivning mifologik asoslari qush patining magik xususiyati haqidagi xalq qarashlariga borib taqaladi.

Zero, ukki, boyo'g'li kabi qushlarning patlarini yosh bolalarning do'ppisiga taqib qo'yish, ko'kyo'tal bo'lgan bolalarga ko'kqarg'aning pati ivitilgan suvdan ichirish, kelinchaklarning bosh kiyimiga pat qistirish kabi udumlar ham qush kultiga ishonish va parning magik xossaga egaligi haqidagi inonchlar asosida kelib chiqqan. Folklorshunos B.Sarimsoqovning fikricha, patni tutatish orqali Semurg'ni chaqarib olish motivining genetik asosi "o'luvchi va qaytadan tiriluvchi tabiat haqidagi qadimiy qarashlarga"ga borib taqaladi [11].

Bizningcha, qush patining magik xususiyati bilan bog'liq xalq qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan epik motivlarning

genetik ildizlari animistik tasavvurlarga bog'lanadi. Ajdodlarimiz odam yoki biror jonivor o'lgach, uning ruhi tanasining muayyan qismlarida saqlanib qoladi deb o'ylaganlar. Ana shu qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan animatik miflarning arxaik shakllari "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan.

Tojik olimi O. Murodov shomon qarashlari bo'yicha ajina sochini qo'lga kiritgan odam unga o'z hukmini o'tkazishi mumkinligini aytadiki, bu ham soch magiyasiga inonch tufaylidir [13].

O'lgan odamning qayta tirilishini ifodalaydigan "i" ham ertak syujetini boyitadigan formulalardan biri. Bu formulani "Podachi yigit", "Jovur chol", "Shamshirboz", "Qilichqora", "Bektemir botir", "Sohibjon bilan Ahmadjon", "Suv qizi", "Ilmxon", "Malikai gulizor" nomli ertaklarda uchratish mumkin. Qizig'i, hayotga qaytgan qahramon ko'pincha "uxlab qolibman" so'zlarini aytadi. "G'ulom polvon" ertagida qahramon tirilgach, uning aka-ukalari – podshoning o'ttiz to'qqiz o'g'li "uxlab olay", – deb birin-ketin o'la boshlaydi. Bu holat ham uyqu o'lim o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib turibdi.

Jonsizning jonliga, jonlining jonsizga evrilishi ham shomonlik e'tiqodining tarkibiy qismlaridan biridir. Rivoyatlarga ko'ra, Badi ismli Oltoy shomonini dushmanlari uch marta o'ldiradilar. Ammo u har safar qayta tirilaveradi [2].

Qadimgi shumerlar folklorida qahramonlarning kimnidir hayotga qaytarish uchun "tiriklik suvi"ni izlab topishi tasvirlangan mif va afsonalarning bir nechta namunalarini bor. Xususan, Ishtarning marhumlar makoniga safari haqidagi mifda bayon qilinishicha, qahramon o'liklar olamiga kirganida u yerda yetti darvozadan o'tadi. Har bir darvoza oldiga kelganida Ishtar birorta kiyimini yechadi va shundan keyingina u ichkariga qo'yiladi. Yettinchi darvozadan o'tgan Ishtarni "o'lim nigohi" mahv etadi va uning joni tanani tark etadi. Buni ko'rib turgan ma'bud Eyya Asushunamirat degan bir qulni yaratadi va hayot suvini olib kelish uni yer ostiga jo'natadi. U Erishgikalni bir mesh suv berishga ko'ndiradi. Erishgikal o'z maslahatchisi Namtarga Ishtarni jonsiz tanasiga tiriklik suvini sepiшни buyuradi. Hayot suvi sepilgandan keyin tirilgan Ishtar yer yuziga qaytib ketadi [15].

Gilgamesh to'g'risidagi afsonaning mazmuni esa quyidagicha: bahodir Enkidu vafot etgach, o'zining yaqin do'sti va safdoshidan ayrilgan Gilgamesh abadiy umrga erishish uchun Utnapishti huzuriga o'tlanadi. Utnapishti Gilgameshning ajdodi bo'lib, juda uzoqdagi bir daryo bo'yida yashar edi. Qahramon o'z yo'lida Zulmat mamlakatiga duch keladi va u yerdagi o'n ikkita to'siqni yengib, o'lim ummonidan suzib o'tadi. Ammo abadiy umri qo'lga kiritish Gilgameshga nasib etmaydi. U uyqu sinovidan o'tolmaydi, buning ustiga u o'ziga sovg'a qilingan yoshlik gulini ham yo'qotib qo'yadi [7].

Qadimgi kishilar quyoshning botishi bu samo yoritqichining ramziy o'limi ifodasidir, deb tasavvur qilganlar. Kun-tun almashinishi, kunduz – yorug'lik o'mini zulmat – qorong'ulik qoplashi va bu jarayonning uzluksiz davom etib turishi ma'lum ma'noda quyoshning o'lib-tirilishi natijasida ro'y beradigan hodisa sifatida izohlangan. Yer osti dunyosida mangu hayot baxsh etadigan afsonaviy manba bor deb tasavvur qilingan va kun botayotganda ramziy ma'noda "o'lgan" quyosh boqiylik manbaini izlab yer ostiga tushadi. Ammo u boqiy hayotga to'la erisha olmagan uchun erta tongdan yana osmon bo'yab bir kunlik safarga chiqadi [9].

Faqat sehrli ertaklarda uchraydigan formulalardan yana biri – ajdar, dev va yalmog'iz kabilar bajaradigan ishning ifodasi bo'lmish "gl" elementidir. Bu kabi yovuz maxluqlarga 37 ta ertakda 50-marta alohida e'tibor qaratilgan. Biz o'sha holatlarnigina formula sifatida qayd etdik.

Xususan, "Quyosh yerining pahlavoni" (Oxirida har kuni tong paytida qorni ochib shaharga hujum qilmoqchi bo'lganida uning yo'lga bola bilan qo'y qo'yiladigan bo'ldi. Ajdaho yo'l ustida uchragan bola bilan qo'yni yeb, to'nganidan keyin shahar tomon yurmasdan iziga qaytib ketadi), "G'ulombachcha" (Bu ajdar kunduzi uxlaydi, kechasi chiqib, hamma qishloqlarni aylanib, nima to'g'ri kelsa, tutib yeydi. Bu qishloqning xarob bo'lishiga shu ajdar sababchi), "podachi yigit" (Bu yurtda bir ajdarho paydo bo'lgan, har kun bir qo'y bilan bir qiz yeydi. Hamma qizlarni yeb bo'ldi. Bugun podshoning qiziga navbat keldi) "Devbachcha" ("Hu tog'da bir ajdarho bor, har oqshom bir

odamni yutadi. Bu oqshom podshohimizning birdan-bir qizini yutmoqchi”), “Shamshirboz” (“Har kechasi shahar xalqi bir qiz bilan bir qo‘y va shunga o‘xshash ba‘zi bir narsalarni bir chinor tagiga chiqarib qo‘yadi. Ajdar kechasi kelib, shu qiz bilan qo‘yni yeb ketadi. Bu oqshom navbat podshoning qiziga keldi”), “Ermana mergan” (“Elimizda katta bir ajdaho paydo bo‘lgan, har kuniga shu ajdaho shu katta tosh yo‘l bilan kelib bir qiz bilan bir qo‘yni yeb ketadi. Bugungi kunga kelib shaharda hech qiz qolmay navbat menga kelibdi”), “Qilichqora” (“Ajdarning hukmi yomon. Har kuni bir qo‘y, bir qizni yeb kun ko‘radi. Bugun podshoning qiziga navbat keldi”), “Ahmadjon bilan Luqmonjon” (“Har yili shahar chetiga bir ajdar kelib, ko‘ringan qizni yeb ketar edi. Shu ajdar yana kelibdi”), “Sohibjon bilan Ahmadjon” (Podshoh aytdi: “Mening bog‘imda bitta ajdarho paydo bo‘lib qoldi. Har yeganda bitta bo‘yi yetgan qizni yeydi. Endigi navbat mening qizimga yetdi), “Uch og‘ayni” (Ajdarning yemagi uchun shu shaharning podshohi har bir uyga bir qo‘y, bir bola berishni buyurgan. Bugun podshoning o‘ziga navbat keldi) ertaklarida xalq boshiga baloqazo yog‘dirgan dahshatli ajdarning talabini ko‘rishimiz mumkin.

“Sunbul qush” (“bir dev shu qizni olish uchun har kuni bir odamni yeb yurar ekan, podsho bo‘lsa qizini devdan olib qolishni o‘ylab, soch-soqoli oqarib ketgan ekan”), “Gungila” (“Bir kuni bir dev bu qizdan xabar topib qolib, chorvoqqa kelib, uni ko‘tarib o‘zining makoniga olib ketdi”), “Hotam” (“Shahar podshosining Hurinisa degan qizi bor ekan, uni devlar bundan ikki yil ilgari olib qochib ketgan ekan”), “Besh qiz” (“Men Parsi podshosining qizi Kumushxon bo‘laman, o‘n besh yoshimda menga bir dev xushtor bo‘lib qolib, bir kechada o‘g‘irlab kelgan”), “Suhrob bilan Mizrob” (“Podshohimizning birgina

Qo‘zixon bekam ismli sohibjamol, aqlli bir qizi bor edi. Shu qizni bundan uch kun ilgari devlar olib qochib ketganlar”) ertaklarida go‘zal malikani olmoqchi bo‘lgan devlar haqida hikoya qilinadi.

Yovuz kuchlarning aynan qiz bolalarni talab qilishining o‘ziga xos izohlari mavjud. J.Frezerning ta‘kidlashicha, Nil daryosi bo‘yida yashovchi xalqlar yosh qizlarni yasantirib, daryoga tashlaganlar. Go‘yoki shu yo‘l bilan qiz va er deb qaralgan daryoni nikohlaganlar [14]. Shu yo‘sinda “qizlarning daryoga qurbonlik qilinishi ibtidoiy insonlar tasavvurida hosildorlikning mo‘l bo‘lishini ta‘minlagan”.

V.Y.Propp odamlarning, ayniqsa, qizlarning yeyilishini qadimiy-o‘tish marosimi bilan bog‘lab, uning totemistik xarakterini shunday izohlaydi: “Totem jonivor bilan muloqotda bo‘lish, shu yo‘l bilan totem urug‘ga kirish uchun shu jonivor tomonidan yeyilishi shart bo‘lgan” [12].

Folklorshunos M. Jo‘rayev ma‘lumotiga ko‘ra, Qorako‘l tumanida ayollar farzandi tura bermasa, chaqalog‘ini bo‘ri kallasi og‘zidan o‘tkazib yoki terisiga o‘rab olar ekanlar. Bizningcha, bu odat imitativ magiyaga inonch ko‘rinishi bo‘lib, totem jonivor tomonidan yeyilishi ramzi bo‘lishi kerak [8].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, o‘rtaliq formulalar voqealar joyini o‘zgartirish, qahramonning uzoq va mashaqqatli yo‘l bosganini alohida ta‘kidlash, dushmanlarning nihoyatda kuchligini bo‘rttirib ko‘rsatish, hukmdorlarning qahri va muruvvatining orasidagi masofa naqadar qisqa ekanini ifodalash kabi maqsadlarda qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu formulalar marosimlarning, o‘rnatilgan taqiqlarning, sehrli buyumlar va tilsimli so‘zlarning ahamiyatini tushuntirishga, eng muhimi, ertak syujetini boyitishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. – М., 1953.
2. Басилов В.Н. Избранники духов. – М.: ИПЛ, 1984.
3. Жўраев М. Нарзикулова М. Миф, Фольклор ва адабиёт. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2006.
4. Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.
5. Каскабасов С. Казахская волшебная сказка. – Алмата, 1990.
6. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Тошкент, 1960.
7. Костюхин А.Е. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – М., 1972.
8. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010.
9. Раҳмонова М.Р. Ўзбек халқ тарихий афсоналарининг ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва таснифи. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2003.
10. Сазонова М. В. Украшения узбеков Хоразма // Традиционная культура народов Передней и Средней Азии. – Л., 1970.
11. Саримсоков Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.
12. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л. Изд-во ЛГУ, 1986.
13. Фольклор и этнография: Связи фольклора с древними представлениями и обрядами Сборник статей. – Л.: Наука, 1977.
14. Фрезер Дж. Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии. 2-е изд-е. – М.: ИПЛ, 1986.
15. Хук С.Г. Мифология Ближнего Востока. – М., 1991.